

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11049753>

GYOTE VA VOHIDOV

Shahrizoda Botirova Iqboljon qizi

O‘zMU 3-bosqich talabasi

b88461900@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Erkin Vohidovning tarjimonlik faoliyati to‘g‘risida ayrim tahlillar berildi. Gyote va Vohidovdek ikki ijodkorning badiiy mahorati taqqoslandi. Erkin Vohidovning falsafiy qarashlari, qomusiy bilimlari “Faust” asari tarjimasida yaqqol ko‘zga tashlanadi. “Faust” asari shoirning “Ruhlar isyoni” dostonining yaralishiga sabab bo‘lganligi alohida ko‘rsatildi.

Kalit so‘zlar: tarjima, Doktor Faust, Iblis, badiiy niyat, faylasuf, konsepsiya

Abstract: This article delves into the analysis of Erkin Vahidov’s translation of Goethe’s “Faust”, examining the interplay between the artistic prowess of both writers. Vahidov’s philosophical depth and vast knowledge are evident in his translation, showcasing his ability to capture the essence of Goethe’s masterpiece. The article further posits that Vahidov’s engagement with “Faust” served as a catalyst for the creation of his own epic poem, “Rebellion of Souls”.

Key words: translation, Doctor Faustus, Devil, artistic intent, philosopher, concept

KIRISH

I.V.Gyote Yevropa uyg‘onish davrining so‘nggi yirik siymosi va ma‘rifatchilik davrining atoqli namoyondalaridan hisoblanadi. U nafaqat 143 jildlik adabiy meros egasi, balki faylasuf, qomusiy bilimlar sohibi, buyuk davlat arbobi hamdir. “Faust” I.V.Gyotening falsafiy qarashlari jamlangan asari bo‘lib, asar qahramoni Faust – yetuk aql-idrok egasi bo‘lib, u olam mohiyatiga yetishga, cheksiz hurlikka intiladi. O‘zbek xalqi ana shunday mumtoz asarni sevimli shoir E.Vohidov tarjimasida o‘qishga muvaffaq bo‘ldi. Shoir uzoq yillar davomida asar tarjimasida ustida ter to‘kdi. Avvalo, bir fikrni ta‘kidlash joizki, “Faust” kabi asarni tarjima qilish uchun ijodkor ruhiy dunyosi va tafakkuri shu asar darajasida bo‘lmog‘i lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

E. Vohidov ta'kidlaganidek, "Gyotening "Faust"ni butun falsafasi, teran ma'no tovlanishlari bilan tushunish uchun nemis bo'lib tug'ilish ham kamlik qiladi"¹. Shoir bu tarjimaga dab-durustdan qo'l urgani yo'q. Gyotegacha Aleksandr Blok, Lesya Ukrainka, Mixail Svetlov, Sergey Yesenin, Rasul Hamzatov ijodidan tarjimalar qildi. Bular shoir uchun o'ziga maktab vazifasini o'tadi desak, xato bo'lmaydi. "Faust" dunyosi bilan tanishishdan avvalroq Gyote shoir yuragiga "G'arb-u Sharq devoni" bilan kirib kelgan edi².

Adabiyot ahliga yaxshi ma'lumki, qalban Sharq falsafasi, islom dini, tasavvuf ta'limotiga yaqin bo'lgan Gyote Hofiz, Rumi asarlarini o'qib, ular ta'sirida "G'arb-u Sharq devoni"ni yaratgan. Sharq tafakkuri va ruhiyatiga yaqinlik "Faust"da ham ko'zga tashlanadi. Shoir "Erkin Vohidov ana shunday buyuk asarni barcha jozibasini, xilma-xil ohangi-yu, biroz arxaiklashgan til uslubini ham ona tilimizda qayta yaratdi"³. Shoir tarjima uchun asos qilib, Boris Pasternak variantini oladi. Lekin bu bilan cheklanib qolmay, o'nlab tarjimalarni o'rganib, kerakli o'rinlarda nemischa original variantdan foydalanadi va asarni muvaffaqiyat bilan o'zbek tiliga o'giradi. Germaniyaning Veymar kutubxonasi javonidan o'n ikki ming birinchi bo'lib nashr etilgan "Faust" ham joy oldi. "Faust" tarjimasiga Gyote xayotlik chog'laridayoq qo'l urila boshlangan bo'lib, ular orasida Gyotega eng manzur bo'lgani fransuz tiliga qilingan tarjima bo'lgan ekan.

NATIJALAR

Mutaxassislar fikricha, agar Gyote "Faust"ni o'zbek tilida Erkin Vohidov tarjimasida o'qiganida, shubhasiz, bu ham unga ma'qul kelgan bo'lar edi.

Oy o'rtanar ko'zlarida yosh
Bag'ri dog'-u yuragi qiyma.

Der, ey falak, men edim quyosh

Nega meni qilding tarjima.

Bu satrlar ham shoir dilida "Faust" tarjimasini chog'ida tug'ilgan. Chunki "Faust"dek genial asarni o'zbek tilida qayta yaratish oson ish emas. Bu haqida shoir hayajon bilan shunday deydi: "Faustdek qasr ustunlaridan o'zbek zaminida tiklanadigan inshoot sodda va jo'n bo'lib qolmaydimi degan andishani qildim. Faust yaratilgan zamon va makon ruhini bera olarmikanman degan xayol bo'ldi. Gyotening

¹ Vohidov E. Gyote yurgan yo'llardan/ /Iztirob. –Toshkent: O'zbekiston, 1990 yil. –133-bet

² Vohidov E. Shoir-u she'r-u shuur. –Toshkent, 1987 yil. –159-bet.

³ Komilov N. "Badiiy mo'jiza"//So'z sehri. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. –25-bet.

Sharq falsafasiga yaqinligi mening yo‘limni yoritib turdi, ruhimga madad bo‘ldi. Nemis tilini mukammal bilmasam-da, rus tiliga qilingan ko‘plab tarjimalar, tadqiqotlardan bahramand bo‘ldim. Ulug‘ shoir fikri va ruhiga chuqurroq kirishga urindim. Uning vatanida bo‘lib, Veymar ko‘chalarida kezib yurdim. Necha ulug‘ shoir va sozandalarini bergan bu shahar menga G‘arbning Hiroti bo‘lib tuyuldi”¹.

MUHOKAMA

Shoir asar mahobatini, aql va idrok bilangina emas, balki yurak bilan his etgan. U Gyotening falsafasini teran anglagan. Asarning tayanch nuqtasini topa olgan. Xayolotning yuksakligi, tafakkurning cheksizligi, inson atalmish mo‘jizaning murakkab dunyosini aks ettiruvchi asarning ruhiga kira olgan. Bunga albatta shoirning Gyotega bo‘lgan cheksiz mehr-muhabbati sabab. “Gyote she’riyati meni yoshligimdanoq maftun etgan. Aslida men uchun Sharq bilan G‘arbning shoyon farqi yo‘q. Chunki bu tuyg‘u g‘arbniki, bu tuyg‘u sharqniki deb ajratib bo‘lmaydi. Menimcha, har ikkovida ham inson haqidagi jahoniy falsafa mujassam. Qachonki asar inson qalbiga yo‘naltirilgan, inson sha’ni uchun kurashadigan, insonga mehr bilan sug‘orilgan bo‘lsa, Sharqqa yoki G‘arbgga mansubligidan qat’iy nazar, ulug‘ asar bo‘ladi va mangu yashab qoladi. Xullas, Gyotening menga yaqinligi uning Sharqqa yaqinligi, insonga yaqinligi bo‘lgan”².

Bu tarjima Erkin Vohidovning ijodida tub burilish yasadi va eng quvonarlisi “Ruhlar isyoni” kabi dostonning yaralishiga turtki berdi. Buni o‘z vaqtida shoirning muxlislari ham payqab, shunday savol bilan murojaat qilishadi: “Siz dastlab choynak piyola, ko‘z yosh, po‘lat to‘g‘risida she‘rlar yozgansiz, keyin “Yoshlik devoni”, “Dostonlar” kitobingiz chiqdi. Yesenin she‘rlarini, Gyotening “Faust”ini tarjima qildingiz. Bizni Nazrul Islom qismati haqidagi dostoningiz qiziqtirib qoldi. Bularning har biri alohida olamga o‘xshaydi. Ular bilan “Ruhlar isyoni”ni bir ijodkor yaratganiga ishonish qiyin”³.

To‘g‘ri, ijodkorlarda bunga o‘xshash holat kuzatilishi mumkin. Badiiy tafakkuridagi, ijodidagi bu keskin evrilishni shoirning o‘zi ham e’tirof etib, “Gyote maktabini ko‘rmaganimda, “Faust” bahona jahon adabiyotiga chuqurroq kirmaganimda “Ruhlar isyoni” dostoni paydo bo‘larmidi, yo‘qmi? Axir, g‘azal yozgan shoir qayoqda-yu, “Ruhlar isyoni”ni yozgan shoir qayoqda. O‘zim o‘zimni

⁴ E. Vohidov. Faust olami // Gyote Faust. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. 1985. –5-bet

⁵ E. Vohidov bilan suhbat. Bu obod kunlarga yetdik sog‘-omon. //Tafakkur. 2011 yil. 8-son.

³ Vohidov E. Shoir-u she‘r-u shuur. Toshkent, 1987 yil. –158-b.

⁷ E. Vohidov bilan suhbat. Bu obod kunlarga yetdik sog‘-omon. //Tafakkur. 2011 yil. 3-son, –8-bet

tanamayman hozir”,¹ deydi. O‘zi ta’kidlagani kabi Gyote olami bilan tanishuv shoir ijodida tub burilish yasovchi “Ruhlar isyoni”dek dostonning yaralishiga zamin hozirladi. Har ikki asar bilan tanishganimizda ularda mushtarak jihatlar borligiga amin bo‘lamiz. Birgina folklor motivlaridan foydalanish har ikki asar uchun ham xosdir.

XULOSA

Gyote o‘z asari qahramoni etib, nemis folklorida mavjud obraz – Doktor Faustni tanlaydi. U o‘z vijdonini Iblisga sotgan donishmand sifatida mashhur edi. Gyote asarda o‘zining badiiy g‘oyalarini poetik obrazlar vositasida gavdalantirgan. Sharq she’riyatiga xos majoziylik, ramziy ifodalar uni o‘ziga maftun etgan bo‘lib, shu sababli u Hofizni sevib mutolaa qilar edi. Asarda u mana shu ramz, simvolikadan unumli foydalangan. Korneliya, Yan Gus, Glosser, Lens, Gennings, Muzaget kabi real shaxslar bilan birgalikda asarda Fetida, Yelena, Odissey, Yason, Seymos, Forkiada kabi mashhur mifologik obrazlar ham uchraydi. Bu holat “Ruhlar isyoni”da rivoyatlar, naqlar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Asarda Shoh Jahon, Avrangzeb, Bobur Mirzo, Bedil, Navoiy kabi tarixiy siymolar ham uchraydi. Asar bosh qahramoni Nazrul Islom ham tarixiy shaxsdir. Folklor namunalaridan foydalanish har ikki asarda ham ijodkorlar badiiy niyatini amalga oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilgan. Ijodkorlar badiiy niyati asarda afsona va rivoyatlardan foydalanishni taqozo etgan. Aynan shu rivoyatlar qahramonlar xarakteri, ruhiy dunyosini ochishga xizmat qilgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCE)

1. Vohidov E. Gyote yurgan yo‘llardan//Iztirob. –Toshkent: O‘zbekiston, 1990 yil. –133-bet.
2. Vohidov E. Shoiru she’ru shuur. –Toshkent, 1987 yil –159-bet.
3. Komilov N. “Badiiy mo‘jiza”//So‘z sehri. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. –25-bet.
4. Vohidov E. Faust olami // Gyote Faust. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1985 yil. –5-bet
5. E. Vohidov bilan suhbat. Bu obod kunlarga yetdik sog‘-omon. //Tafakkur, 2011-yil. 8-son.